

**Воҳидова Шоира-Бухоро вилояти халқ  
таълими ходимларини қайта тайёрлаш  
ва уларнинг малакасини ошириш  
институти “Тил ва адабиёт” кафедраси  
катта ўқитувчиси**

**ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ФАНИДАН**

**Дарс ишланмалари**

## **Interfaol usullar**

Hozirgi kun ta'limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiya elementlari singib bormoqda. O'qitishning interfaol usullaridan foydalanish bo'yicha muayyan tajriba to'plandi.

Ona tili darslarida ta'limning interfaol usullaridan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptiradi, guruhlarda ishlashga o'rgatadi, ko'pchilik oldida o'z fikrini bayon etish, o'z nuqtayi nazarini asoslash malakalarini hosil qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir. Har bir pedagog shuni esda tutishi kerakki, dars o'quv-tajriba jarayonining asosiy shaklidir. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil ijod qilishga o'rgatishi lozim. Darsda uch maqsad ko'zda tutiladi: ta'lim, tarbiya va rivojlantirish. Bu uch maqsadni dars davomida amalga oshirish uchun interfaol usullardan foydalanib dars o'tish yaqindan ko'mak beradi. O'zlashtirilayotgan tajribani to'g'ridan to'g'ri o'quvchilarga o'zaro ta'sir harakati orqali yo'naltirish, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tishning asosi bo'lib, bunday yondashuvda o'qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki o'quvchilarni mustaqil ishlashga chorlaydi. Hozirgi zamon darsiga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda o'rganiladigan mavzuning ilmiy asoslangan bo'lishidir, ya'ni darsda ko'zlangan maqsad va o'quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, avvalgi o'rganilgan mavzu bilan bog'lash, o'quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo'ladigan jihozlarni belgilash va qo'shimcha ko'rsatmali qo'llanma bilan boyitish, interfaol metodlardan foydalangan holda darsda muammoli vaziyat yaratishdir. Darsda qo'yiladigan asosiy talablardan biri ta'lim metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog'lab olib borish samaradorligini oshirishdir. Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri barcha didaktik vazifalar darsning o'zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o'quvchilarning darsda olgan bilimlarining mantiqiy davomi bo'lishi kerak, dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak, o'tilgan har bir darsning o'quvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi.

### **Interfaol usullardan foydalanishda o'qituvchi quyidagilarni bilishi lozim:**

- Interfaol usullar, uning mazmun mohiyati;
- Ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda interfaol usullarning o'rni va roli;
- Fanlar bo'yicha interfaol usullarni qo'llash tamoyillari;
- Ta'limiy va ishchanlik o'yinlari;
- Muammoli, rivojlantiruvchi ta'lim metodlari;
- O'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llari;
- O'quvchilarning mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullari;
- Ko'rsatmali o'qitish usullari;

- Ta'lim-tarbiyani faollashtiruvchi omillar;

Interfaol usullarning ahamiyati

1. O'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi.
2. O'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi. Umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko'mak beradilar.
3. O'quvchilar o'z ishlari natijasiga, o'qitishga, ta'lim olishga shaxsan ma'sullikni his qiladilar.

Quyida interfaol usullarning ayrimlari bilan tanishib o'tamiz:

1. Aqliy hujum
2. Suhbat
3. Juftlikda ishlash
4. Kichik ma'ruza
5. Rolli o'yinlar
6. Bahs-munozara
7. Sinkveyn
8. Tushunchalar tahlili
9. Idrok xaritasi
10. FSMU (Fikr, Sabab, Misol, Umumlashtirish)
11. Tanqidiy fikrlash va h.k

**Suhbat metodi**- ko'p qo'llaniladigan va samarali usullardan biridir. Bu ko'pincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki mazkur metodda dars jarayoni savol-javob vositasi asosida olib boriladi. O'qituvchi o'quvchilarga savol berib ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni eslariga tushirish yoxud mavjud bilimlar asosida yangi mavzulardan tegishli xulosalar chiqarishni taklif etish yo'li bilan bilim, ko'nikma va malakalr berish nazrda tutiladi. Suhbat metodi o'quvchi faoliyatining yangi-yangi qirralarini ochib beradi va bir maqsadga qaratilgan mustahkam harakat birligini yuzaga keltiradi.

**Kichik ma'ruza** - o'tiladigan mavzuning mazmuni haqida kichik ma'lumot beriladi. So'ng mavzu bo'yicha guruhlarda ishlanadi.

**Rolli o'yinlar** - Muammoli vaziyat yaratiladi. O'quvchilar bu muammoning yechimini rollar orqali ifodalab berishadi. Bu usulda "real" holatlarini qayta jonlantiradilar. Ularga amaliy ish faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko'rish va tekshirish imkoniyatlarini beradi.

**Bahs-munozara** usulida o'quvchilarga bir kun oldin mavzu beriladi. O'quvchilar mavzuni o'qib, savollarga javob topib, guruhlarda o'sha savollarga javoblar bahs- munozara asosida olib boriladi. Juftlikda ishlash bu ustuvorlikka ega usullardan biridir. O'qituvchiga savol beriladi, beriladigan savollar muammoni chiqaradigan bo'lib, o'quvchilar juftlikda uning yechimini topishadi. Juftlikda ishlash o'quvchilar orasida muammolarni bartaraf etish to'g'risida muloqat uyushtirilishiga chorlaydi. Agar o'quvchi juftligi javob yuzasidan ko'rsatmali material, jadval yoki diagrammalar tayyorlangan bo'lsa, o'sha juftlikning har bir a'zosi fikrining mahsuli bilan g'ururlana olishi mumkin.

### **Aqliy hujum**

**"Aqliy hujum"** o'quvchilarda mustaqil fikrlash imkonini beruvchi ta'lim usulidir. Mazkur usul yordamida muammoli savol yoki topshiriq vositasida

barcha o'quvchilarning fikrlari jamlanib, yakuniy xulosaga kelinadi. Bunda aytarli to'g'ri bo'lmagan fikrlar ham inobatga olinadi.

O'rtaga tashlangan muammoli savol yuzasidan bildirilgan fikrlar doskaga yoki maxsus qog'oz (flipchart) ga yozib boriladi. Bunday yondashuv aytilgan fikrlarni jamlash, tahlil qilish va umumiy xulosa chiqarish imkonini beradi.

“Aqliy hujum” ni o'tkazish yo'llari

1. O'qituvchi o'quvchi oldiga savol, topshiriq yoki muammoni qo'yadi (savol va topshiriqlar o'tilgan yoki yangi o'zlashtirilayotgan mavzu bo'yicha, shuningdek, hayotiy voqea-hodisalar yuzasidan bo'linishi mumkin) va o'quvchilardan o'z fikr-mulohazalarni bildirishlari so'raladi.
2. Barcha fikrlar doska yoki flipchartga yozib boriladi.
3. So'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan birga asosiy g'oyalarni uyg'unlashtiriladi, ayrim o'rinlarga tuzatishlar kiritadi, keyingi jarayonlarda foydalanish uchun eng muhimlari ajratib olinadi.

“Aqliy hujum” ni o'tkazish qoidalari

1. “Aqliy hujumni” ni o'tkazish uchun ajratilgan vaqt (reglament) ga qat'iy rioya qilish zarur.
2. Belgilangan vaqt orasida fikr aytish istagini bildirgan har bir o'quvchiga imkoniyat yaratish zarur.
3. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar muhokama qilinmasligi, baholanmasligi kerak.
4. Zarur bo'lib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrlarga tuzatish kiritish mumkinki, bu narsa o'quvchilar o'z fikrlarni aniq, lo'nda, qisqa bayon etishlarga olib kelsin.

### **Tanqidiy fikrlash**

“Tanqidiy fikrlash” usuli o'rtaga tashlangan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini aytish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy idrok etish, o'z nuqtayi nazaridan asoslab berish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir.

Bunday usuldan bahs-munozara xususiyatiga ega bo'lgan masalalar muhokamasida foydalanish mumkin. Masalan: O'zaro muloqotda Siz yoki Sen deb murojaat qilishning qaysi biri ma'qul? Darsliklarga yozib chizadigan o'quvchilarga munosabatingiz va h.k

Interfaol ta'lim usulining bunday shakli o'quvchilarda tinglash va muloqot ko'nikmalarni shakllantiradi, turlicha qarashlar va nuqtayi nazarlarni tushunish malakasini rivojlantiradi, bahsli masalalarni muhokama qilish, tahliliy mushohada yuritish va firklash qobiliyatini oshiradi, o'z dunyoqarashini, nuqtayi nazarini, fikrini shakllantirish, uni bayon etish mahoratini takomillashtirish imkonini beradi.

“Tanqidiy fikrlash” ni tashkil etish usullari:

1. Bahs- munozara xususiyatiga ega bo'lgan muammo yoki topshiriq qo'yiladi va quyidagicha savollar o'rtaga tashlanadi:
  - A) Nima deb o'ylaysiz?
  - B) Fikringiz qanday
  - C) Sizningcha qanday? va h.kUshbu shakldagi savollar o'quvchi nuqtayi nazarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.
2. O'quvchiga o'z nuqtayi nazarini aniqlash, fikrini bir joyga to'plash uchun imkoniyat va fursat beriladi.

3. O'quvchi o'z fikrini asoslaydi, shu o'rinda u o'z nuqtayi nazarini aniqlab olishi uchun quyidagi savollarni berish mumkin:
  - A) Nega shunday deb o'ylaysiz?
  - B) Nimalarga asoslanib bunday xulosa keldingiz?
  - C) Qanday manbalardan foydalandingiz?
4. Muhokama qilinayotgan masala yuzasidan boshqa o'quvchilarning o'z fikrlarini bildirishlari uchun imkon beriladi. Bunda quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:
  - A) Kimda boshqacha fikr bor?
  - B) Aytilgan fikrlarni ma'qullaysizmi? Nima uchun? (yoki aksincha)
5. O'quvchilar bilan birgalikda barcha bildirilgan nuqtayi nazarlar muhokama va tahlil qilinadi, bunda quyidagi mazmundagi savollar o'rtaga tashlanadi:
  - A) Sinfdoshlaringiz fikrini nima uchun ma'qullaysiz?
  - B) Sinfdoshingiz fikriga qarshi o'z qarashingizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?
6. Muhokama qilingan muammo yuzasidan chiqarilgan yakuniy xulosaga o'quvchilar tomonidan o'z nuqtayi nazarlarining qabul qilinishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:
  - A) Sizningcha kimning nuqtayi nazarini eng maqbul deb qabul qilish mumkin?
  - B) yuzaga kelgan vaziyatdan qaysi yo'l bilan chiqishni ma'qulroq deb o'ylaysiz?

**“Tanqidiy fikrlash” usulini o'tkazish qoidalari:**

1. Aniq belgilangan vaqtda o'quvchilar berilgan topshiriq yoki muammo bo'yicha o'z vazifalarini ado etishlari lozim.
2. Har bir bajarilgan ish natijalariga ko'ra topshiriq muhokamasi va baholash amalga oshiriladi. Ishtirokchilar va kuzatuvchilar jarayon paytidagi holatlarini tahlil qilib chiqish va muhokama etish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

Bunda quyidagi savollar o'rtaga tashlanadi:

- A) Muhokama jarayonida qanday natijalarga erishildi?
- B) Qanday muammolar tilga olindi, u o'z yechimini topdimi?
- C) Jarayon shartlari o'zgartirilsa, natijalar qanday bo'ladi va h.k

**Kichik guruhlarda ishlash**

Kichik guruhlarda ishlashda – dars jarayonida barcha o'quvchilarni faollashtirish imkoniyatiga ega bo'lish lozim.

Kichik guruhlarda ishlash jarayonida alohida masalalar yuzasidan o'z fikrini guruhda muhokama qilishga, turlicha fikrlarni uyg'unlashtirib, umumiy nuqtayi nazarga kelishga o'rgatiladi. Shuningdek, bir o'quvchi guruh boshlovchisi sifatida sinfdoshlari oldida so'zga chiqib, guruh nuqtayi nazarini himoya qiladi va bu bilan o'quvchida ko'pchilik oldida so'zlash, o'z fikrini himoya qilish, fikrlarini uyg'unlashtira olish kabi ko'nikma va malakalar shakllana boradi.

**Kichik guruhlarda ishlash yo'llari:**

1. Topshiriq, chalkash masala yoki savol asosida muammo tanlab olinadi. Topshiriqda bahsli jihatlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.
2. Kichik guruhlar shakllantiriladi. Guruhlardagi o'quvchilar soni 3-5 nafardan oshmasligi kerak, topshiriq xususiyati, sinfdagi o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda guruhdagi o'quvchilar soni o'zgarishi mumkin.

Guruhlarda ishni tashkil etishda ishtirokchilarga vazifalar taqsimlanib berilgani ma'qul.

Masalan, bir o'quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yuzaga kelgan fikrlarni qog'ozga yozib boradi, uchinchisi vazifaning belgilangan vaqtda bajarilishini muvofiqlashtirib turadi, to'rtinchisi guruhning umumiy xulosalarini taqdim etadi va h.k

O'quvchilarni guruhlariga ajratishda ikki usuldan foydalaniladi. Birinchisida, o'quvchilar xohishiga ko'ra, ikkinchisi hisoblash usuli bilan (masalan, birinchi,... to'rtinchi, shundan keyin raqamlari bir xil o'quvchilar bitta guruhga birlashtiriladi) Guruhlarga ajratishda ikkinchi usuldan foydalangan ma'qul. Bunda xolislik tamoyiliga asoslanib, jarayon natijalarini baholash ham birmuncha oson bo'ladi.

1. Guruhlarda ishlash vaqti belgilab olinadi. Topshiriqni bajarish yo'l-yo'riqlari tushuntiriladi. Vazifani bajarish yo'lini tushunmagan guruh a'zolariga qo'shimcha izoh beriladi.

2. Guruhda ish jarayoni tugagandan keyin yakuniy xulosalar taqdimoti o'tkaziladi. Xulosalarni guruh sardori himoya qiladi. Zarur hollarda taqdimot natijalari doskaga yoki qog'ozga yozib boriladi. Imkoniyatga qarab guruhlar bir-birlariga savollar berishlari mumkin.

3. Taqdimot natijalari asosida muhokama uyushtiriladi va baholanadi. Bunda quyidagicha savollar o'rtaga tashlanadi:

A) Guruhlarga bo'linib ishlash jarayonida qanday natijalarga erishildi?

B) Qanday muammo ustida fikrlashildi, u o'z yechimini topdimi?

S) Jarayonda o'zingizni qanday his etdingiz va h.k

#### **Kichik guruhlarda bo'linib ishlashni o'tkazish qoidalari:**

1. Guruhlarda ishlash uchun belgilangan vaqtga qat'iy rioya qilish kerak.

2. Guruhlarlarga yordam berayotgan o'qituvchi o'z nuqtayi nazarini o'tkazishga urinmasligi lozim.

3. Guruhlar tomonidan bildirilgan fikr va xulosalar muhokama qilinishi, tanqidiy mulohazalar bildirilishi mumkin.

4. O'zni kelganda bayon etilgan fikr va xulosalarga tuzatishlar kiritilishi, bu narsa umumiy xulosa mazmunini boyitishga, izchillashtirishga xizmat qilishi zarur.

**“Sinkveyn” usuli.** Sinkveyn- qisqa jumlagacha katta axborot singdirilgan matn.

**Sinkveyn-** fransuzcha so'z bo'lib, “bosh, asosiy” ma'nolarni anglatadi.

Sinkveyn quyidagi qoida asosida yoziladi.

1- qator. Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi.

2- qator. Mavzu ikki so'z bilan yoritiladi.

3- qator. Mavzudagi voqelik ikki yoki uch so'z bilan ochiladi.

4 – qator. Mavzudagi munosabat, his-tuyg'u to'rtta so'z bilan beriladi.

5 – qator. Mavzu mazmuni bitta so'z bilan ochiladi.

Masalan: til va so'zlash madaniyatiga oid xalq maqollari ustida ishlashda:

1. Maqollar.

2. Og'zaki ijod.

3. Xalq og'zaki ijodi.

4. Tafakkur mahsuloti, ta'limiy, tarbiyaviy.

5. Ma'rifat

Kichik guruhlarga bo'linib yoxud yakka holda ishlash jarayonida mazkur usuldan foydalaniladi. Mavzu maqsadidan kelib chiqib, uy vazifasini shu tartibda bajarish topshirig'ini ham berish mumkin.

Yuqorida interfaol usullarning ayrimlari xususida to'xtaldik. Bu usullar haqida ba'zi metodik qo'llanmalarda ham fikr yuritilgan. O'quvchining yoshi, bilim darajasi, fanning va o'tilatotgan mavzu xususiyati, mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi ijodiy yondashib, mazkur usullardan dars jarayonida foydalanish tavsiya qilinadi.

Dars mashg'ulotlarini ushbu ta'lim usullari asosida tashkil etish, yana bir bor ta'kidlash joizki, o'quvchilarni faollashtiradi, nutqni rivojlantiradi, fikrni aniq, izchil bayon etishga, o'zgaralar oldida o'z nuqtayi nazarini himoya qilishga o'rgatadi.

O'quvchilarning ko'nikma va malaka me'yorini quyidagicha belgilash mumkin:

1. O'qiganda - 10%
2. Eshitganda – 20%
3. Ko'rganda – 30 %
4. Eshitib ko'rganda – 50%
5. Muhokama, bahs- munozara - 70%
6. Shaxsan o'zi bajarganda – 80 %
7. Sinfdoshlari bilan bajarganda – 90%

Shu o'rinda Xitoy maqolini keltirish mumkin: “Menga gapirsang esdan chiqaraman, ko'rsatsang eslab qolishim mumkin, o'zimga ishlash imkoniyatini ber, shunda bu batamom meniki bo'lib qoladi”.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tilganda, sinfda qoloq, o'zlashtirmaydigan o'quvchi qolmaydi. O'quvchilar o'rtasida do'stona muhit yaratiladi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. O'quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, hunar o'rganishlariga imkon yaratiladi.

#### **Mustaqil tafakkur yuritish darsi.**

O'quvchilarga yangi materiallarning ayrim qismlari to'liq beriladi. Beriladigan voqea-hodisaning kelib chiqish sabablari izlashni o'quvchilarning o'zlari bajarishi kerak. Dars o'quvchilarni material tanlashda uning qiziqarli va maqsadga javob beradigan bo'lishiga erishishi kerak.

#### **Muxbirlar darsi.**

Darslarni o'lkashunoklik materiallari asosida berilgan mashq va topshiriqlar bilan bog'lab o'tish yaxshi samara beradi. Bunda o'qituvchi muxbir o'quvchilarga uy ishlaridan, mavzuga mos savollar berib, javob oladi va muxbir sifatida ularning mehnatini sinfdoshlarga maqtov orqali ifodalaydi. Bu dars usuli muxbir bo'lishni orzu qilgan o'quvchiga topshirilsa, u o'z mahoraratini ishga soladi. Bunday darslarda bolalarda ijodkorlik, tashabbuskorlik hislari uyg'onadi.

#### **Ma'ruza darsi.**

O'qituvchi bir necha mavzuni o'quvchilarga ma'ruza shaklida foydalanish uchun bo'lib beradi. Muhim joylarini konspekt qilishlarini, kerak joylarga ko'rgazmalar, kartochkalar tayyorlashni topshiradi.

Ma'ruza qilish uchun tayyor bo'lgan o'quvchiga keyingi darslarda so'z beriladi. Ma'ruzalarini bayon qiladilar. O'quvchilar ma'ruzachi sinfdoshiga savollar beradilar. Ma'ruza darslarida o'quvchi katta-katta materiallarni qisqa paytda o'zlashtirishi va mustahkamlashi mumkin.

#### **Muammoli dars.**

Darsda muammoli vaziyat vujudga keltiriladi. O'quvchi muammoni yechishni yakka yoki guruh bo'lib izlashi mumkin. Dars davomida bir necha muammoli savollar o'rta tashlanadi va umumiy xulosa chiqariladi. Muammoli vaziyat o'quvchilarga izlanish, tafakkur qilish malakalarini shakllantiriladi.

#### **Muloqot darsi.**

Bunday dars usulida sinfni ikki guruhga bo'lib, davra suhbatini tashkil etiladi. Bunday darslarga oldindan hech qanday savollar va mavzular berilmaydi, o'tilgan mavzularni takrorlab kelish topshiriladi. O'qituvchi turli shakllarda har ikkala guruhga vazifalar berib boradi va javoblarga qarab ballar qo'yadi. Ballarni qo'yib borishda o'quvchilardan tayyorlangan ekspert dars davomida qo'yilayotgan ballarni umumlashtirib boradi hamda o'zining taklif-mulohazalarini aytib boradi. Bunday dars usullari o'quvchilarni tashabbuskorlik va ijodkorlikka chaqiradi.

#### **Ekskursiya darsi.**

Dars tabiat, korxonalar, ko'rgazma, muzeylarda ekskursiya sifatida o'tiladi. Darsda o'quvchilar jonli taassurotlar orqali bilim oladilar. Bu metod tegishli mavzular uchun rejalashtiriladi. Seminar, konferensiya darslardan oldin ekskursiya darslari uyushtirilsa maqsadga muvofiq. Bu darslarda nazariya va amaliyot bir-biriga bog'liq holda olib boriladi.

#### **Sinov darsi.**

O'qituvchi yirik boblarni ma'ruza shaklida o'tadi. O'quvchilarga materialni qamrab oluvchi savollar beriladi. Keyingi darslarda bu savollarga javob topish uchun izlanishga chorlaydi. Bu darslarni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar bilan qo'shimcha izlash va past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga yordam berish uchun sharoit yaratadi.

Sinov darsining boshqa bir shakli yil va chorak davomida olingan material mazmunidan kelib chiqqan holda savollar berish bilan belgilanadi. O'quvchilar berilgan savollar asosida tayyor bo'lgan paytlarida javob berishi mumkin. Sinov darsi o'quvchilarni o'tilgan materialni to'liq bilishga chorlaydi va berilgan topshiriqni vaqtida bajarish hissini tarbiyalaydi.

#### **Seminar darsi.**

Avvaldan tayyorgarlik ko'rish uchun mavzular o'quvchilarga taqsimlab beriladi. Birgalikda reja tuzib foydalanilishi lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati aytib o'tiladi. Har bir mavzu muhokama qilinadi va savol-javob o'tkaziladi, javoblar boshqa o'quvchilar tomonidan to'ldirilib boriladi. Dars oxirida har bir so'zga chiqqan o'quvchi mehnati rag'barlantiriladi. Seminar darslari o'quvchilarda mustaqil izlanish va ularda javobgarlik hissini tarbiyalaydi.

**Sana:**

**Sinf:**

**Fan:** Ona tili



**Mavzu:** Soʻz birikmasi va gap

**Darsning maqsadi:**

a) taʼlimiy - oʻquvchilarga soʻz birikmasi va gap haqida maʼlumot berish

b) tarbiyaviy - oʻquvchilarni ilmparvarlik ruhida yarbiyalash

d) rivojlantiruvchi - oʻquvchilarning til hodisalarini qiyosiy oʻrganish koʻnikmalarini rivojlantirish

**Dars turi:** yangi bilim berish

**Dars usuli:** Boshqotirma yechish, "Vinn diagramma", "BBB", savol javob

**Dars jihozi:** darslik, AKT, oq qogʻoz, flomaster, "Boshqotirma"

**DARSNING BORISHI:**

**1. Tashkiliy qism:**

a) salomlashish;

b) davomatni aniqlash;


d) sinf tozaligini tekshirish;

e) oʻquvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

**2. Oʻtgan mavzuni takrorlash**

Oʻtgan mavzu yuzasidan oʻquvchilarga "Boshqotirma" topshiriladi.

Boshqotirma



1. Soʻz birikmasi va gaplarning qurilishini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi

2. Til birliklaridan biri

3. Vatan haqida hikoya birikmasi qaysi usulda birikkan

4. Ona allasi birikmasi qaysi usulda birikkan?

5. Jonajon Vatan birikmasi qaysi usulda birikkan?

Sinf oʻquvchilari 3 guruhga ajratilgan boʻlib, ularga topshiriq alohida beriladi. "Boshqotirma"ni bajarganlaridan soʻng guruhlar ekranda berilgan toʻgʻri javob orqali ishlarini tekshiradilar.

### 3. Yangi mavzu bayoni

O'quvchilar bilan darslikda berilgan 92-mashq bajariladi.

Mashq topshiriqlari asosan berilgan so'z birikmalari va gaplar qiyosiy o'rganiladi, so'z birikmasi va gap orasidagi farqlar aniqlanadi

Namuna: qiziqarli mashg'ulot – so'z birikmasi

Mashg'ulot o'ziqarli- gap

Oydin kecha—so'z birikmasi


Kecha oydindir-gap...

O'quvchilar bilan mashq bajarilgandan so'ng “Venn diagramma” usulida so'z birikmasi va gap qiyosiy tahlil qilinadi. Mashqdan chiqargan xulosalaridan kelib chiqqan holda topshiriq beriladi. Har bir guruhga oq qog'oz beriladi. O'quvchilar qog'ozga so'z birikmasi va gapning umumiy va xususiy belgilarini qayd qilib beradilar va ishlarini taqdimot qiladilar.

Venn diagramma

So'z birikmasi

Gap



Topshiriq bajarilgandan so'ng darslikdan “Bilib oling” ruknidagi qoida o'quvchilar bilan o'qib, izohlanadi.

### 4. Yangi mavzuni mustahkamlash

Darslikdagi 93-94-mashqlar bajariladi 94-mashq topshirig'iga asosan o'quvchilar berilgan so'z birikmalarini va gap juftliklarining kesimini aniqlab, uning kesimlik ifodalovchi vositalarini og'zaki izohlab beradilar.

Namuna:

Chiroyli gul- s.b.

Gul chiroyli (chiroylidir), chiroyli edi)

95-mashq

Namuna:

Yozdik (kimlar? nimalar? nimaga? nima bilan? nimada? nimadan?)

Biz yozdik. Biz gapni ko'chirib yozdik. Biz sinf doskasiga yozdik. Biz bo'rda (bo'r bilan) yozdik. Biz kitobdan yozdik. Biz gapni sinf doskasiga bo'rda (bo'r bilan) ko'chirib yozdik.

Mashqlar bajartirilgandan so'ng interfaol ta'limning “**BBB**” usuli vositasida mavzu xulosalanadi. O'quvchilarning so'z birikmasi va gaplarning o'ziga xos

jihatlarini,ularning xususiy tomonlari yuzasidan o'zlashtirigan bilim va tushunchalarini qisqa jumlada joylashtirish topshiriladi.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilishni istayman
Gap ma'lum bir fikrni ifodalab keladi.	So'z birikmasi va gapning o'xshash va farqli jihatlarini	Gapning qurilishi va grammatik ma'nolari haqida

Bunda guruh o'quvchilari jadval bandlarini mustaqil ravishida to'ldirishga harakat qilishlari kerak. Har bir guruhdan bir o'quvchi chiqib, ishni taqdimot etadi.

### 5. O'quvchilarni baholash

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi g'olib guruh aniqlanadi.

### 6. Uyga vazifa: 96-mashq.

Kechasi tiniq osmonda yulduzlar charaqlaydi gapidagi so'z birikmalarini aniqlang va birikish usuli bo'yicha sharhlang.

#### Mavzu bo'yicha test

1. Quyidagi javoblardan qaysi biri gap bo'la oladi?

A) kitob o'qimoq B) olma yemoq \*C) uni ko'rdim D) tez kelmoq

2. So'z birikmasi nimani ifodalaydi?

A) fikr ifodalaydi \*B) tushuncha ifodalaydi C) ko'chma ma'no ifodalaydi D) A, B

3. Quyidagilardan qaysi biri so'z birikmasi?

A) olmani oldim B) mevani yedi \*C) birdan kulmoq D) kuylab berdi

4. So'z birikmasida quyidagi vositalardan qaysi biri bo'lmaydi?

\*A) kesimlik shakllari B) nisbat shakli C) bo'lishsizlik qo'shimchasi D) B, C

**Sana:**

**Sinf:**

**Fan: Ona tili**

**Mavzu: Qo'shma gaplar tasnifi.**

**Maqsad:**

**a) ta'limiy** - o'shma gapning Grammatik belgilari haqida nazariy tushuncha hosil qilish, qo'shma gap qismlarini o'zaro qanday bog'langanini farqlay olish o'rgatish, soda gaplarni qo'shma gapga ayllantira olish ko'nikmasini hosil qilish, undan matn yaratishda erkin foydalana olish malakasini oshirish.

**b) tarbiyaviy** - mavzu talablari asosida o'quvchilarni mehnatsevarlikka, hunarga muhabbatlarni oshirish.

**d) rivojlantiruvchi** - o'quvchilarni ijodiy tafakkurini o'stirish.

**Dasrning tiri:** Yangi bilim berish.

**Darsning metodi:** Savol-javob, mozaika, tarmoqlash

**Darsning jihozi:** Darslik, "Hikmatlar" kitobi, mavzusiga oid jadval, test savollari president asarlari "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch", Tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlar.

**Darsning borishi:**

**1. Tashkily qism:**

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- d) sinf tozaligini tekshirish;
- e) o`quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

20 22 91 101 raqamlar so`zlaganda.

20. O`zbekiston mustaqilligining 20 yilligi yurtimdagi tantanalar tadbirlar haqida.

22. O`zbek tiliga davlat maqomi berilganligi, tarraqqiyoti, jahon mingbaridan baralla yangrashi.

91. Sevimli adib, sabirih va yumorisbih asarlar ustasi, o`zbekiston qahramoni Said Ahmad tavalludining qutlug` sanasi.

101. O`zbek she`riyatining degani tarifini olgan so`z ustasi, istedodli so`z san`atkori, "O`zbekiston xalq shiori" Mirtemir tavalludining muhim sanasi izohlanadi.

## 2. O`tgan mavzuni takrorlash va uyga vazifani so`rash.

### Savol-javob

1. Daraxtlarning tanalariga hayot suvi yugurdi-da, ko`m-ko`k barglar mavj ura boshladi.

Bu qanday gap?

2. Soy guvillab oqar va uning muzdek shamoli qirg`oqda o`sgan o`tlarni silkitar edi.

Bu qanday gap?

3. Ba`zan oy zarrin kokillarini yer yuziga yozib yuboradi, ba`zan bulut oy yuzini qoplab oladi.

Bu qanday gap?

4. Onaxon yangi shaharga kam kelgan, lekin bu ko`chalardagi katta binolar esiga qolgan edi.

Bu qanday gap?

5. Mahkam bog`lang mehnatga bel, chunki mehnat bilan yashnaydi el.

Bu qanday gap?

6. Biz Vatanimizni sevamiz shuning uchun uning tarixini yaxshi bilmog`imiz lozim.

Bu qanday gap?

7. Men ham, ukam bilan dadam ham bu manzaradan lol edik.

Bu qanday gap?

8. Kimki o`ziga ravo ko`rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko`rmasa, u mo`mindir.

Bu qanday gap?

9. Tong hali yorishmagan, osmonda yulduzlar ancha siyraklashgan edi.


Bu qanday gap?

## 3. Yangi mavzuni tushuntirish.

### Mozaika usuli

Bo`laklarni yig`ib butun hosil qiling.

<b>Vatan</b>
--------------



Qo'shma gap hosil qiling va uni bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gapga aylantiring. Shundan so'ng yangi mavzuga o'tiladi. Mavzu doskada yoziladi.

Darslik bilan ishlash

1-topshiriq I-guruhga

2-topshiriq II-guruhga

3-topshiriq III-guruhga

Bilib oling! Topshiriqlarni „Kim chaqqon?!“ O'yini asosida izohlab xulosa chiqaring.

Mavzuni o'yin tarzida o'tilishi aytiladi. Sinfdagi bilimdan o'quvchilardan biri Qo'shma gap (Erkin)rolida kirib keladi.

**Qo'shma gap:** O'quvchilar darsni bahs munozara asosida uyushtiramiz.

Mening har bir gramatik belgilarimni sanashdan boshlaymiz.

**1-o'quvchi:** ikki va undan ortiq sodda gapning qo'shiluvidan tashkil topasiz.

2-o'quvchi: Ikki mustaqil kesimda iborat sodda gaplar bog'lovchilar yordamida bog'lanadi.

3-o'quvchi: Sodda gaplar bog'lovchi vositalar yordamida vositalar yordamida bog'lanadi.

4- o'quvchi: Ma'no va ohang yordamida bog'lanadi.


Qo'shma gap. Juda soz! Shunga ko'ra turlarga ajratib o'rganish, anglashga yordam beradi. Demak qo'shma gaplar 3turga bo'lib o'rganilar ekan.

1. Bog'langan qo'shma gaplar.

2. Ergashgan qo'shma gaplar.

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

3guruhga bo'linib har birida guruh boshi ya'ni qo'shma gapning bir turi roliga chiqib uning gramatik belgilari haqida mukammal savollar berib, puxta bilim oladilar.



Har bir guruh o'ziga belgilangan gapni mukammal o'rganish, u haqida tushunchaga ega bo'lish uchun savollar berib, javobini oladi.

Tushuncha	Mazmuni
Bog'langan qo'shma gaplar	
Ergashgan qo'shma gaplar	
Bog'lovchisiz qo'shma gaplar	

Bog'langan qo'shma gap: Mening o'zimga xos belgilarimni sanang.

1-guruh o'quvchisi: Teng munosabatdagi sodda gaplarning o'zaro teng bog'lovchilar bilan bog'lanishidan holsil bo'ladi.

Kuz keldi-yu, ona tabiat bor saxovatini yoydi.

2-guruh o'quvchisi: Bog'langan qo'shma gaplar mazmun nuqtai nazaridan 3xil bo'ladi.

Bog'langan qo'shma gaplar: Qaysilar sanab bering.

1-o'quvchi: Biriktiruv bog'lovchilar yordamida (va,ham, hamda bog'lovchilari malari yordamida bog'laniladi.

2- o'quvchi: Mustaqillikka erishtik va asriy orzular ushaldi.

3- o'quvchi: Shamol turdi-da hammayoqda to'zon boshlandi.

4- o'quvchi: **Ammo, lekin, biroq** zidlov bog'lovchilari,**-u,-uy** yuklamalari yordamida birikadi.

5- o'quvchi: Istiqloлга erishdik, ammo orzularimiz ko'p.

6- o'quvchi: Ayiruv bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar (**goh...goh, yo...,yo...dam...,dam...**

6-o'quvchi: Dam yutuqlaridan g`urulanib gapirar, goh g`alabadan quvonganini ko`zlardi.

Qo'shma gap:Juda yaxshi ergashgan qo'shma gap uning o'ziga xos belgilari haqida so'lang.

II-guruh. Ergashgan qo'shma gap haqida.

1-o'quvchi: Birdan ortiq sodda gaplarning tobe hokimlik munosabatida birining ikkinchisiga ergashishidan hosil bo'ladi.

2-o'quvchi: Demak, bunda bosh gap va tobe gapdan iborat bo'ladi.

3-o'quvchi: Ergash gap bosh gapni izohlab, to'ldirib keladi. SHunga ko'ra uni quyidagi turlarga bo'lib o'rganamiz:

Ergash gap q.g: Qaysi turlarga.

- 4-o'quvchi: 1) Kesim ergash gapli qo'shma gap  
 2) Ega ergash gapli  
 3) Hol ergash gapli  
 4) To'ldiruvchi ergash gapli  
 5) Aniqlovchi ergash gapli

Ergash gap qo'shma gap: Ofarin bularning har birini ajratilgan soatlarda chuqur o'rganamiz.

Qo'shma gap. Xo'sh, yana qanday turimni bilasiz?

III-Guruh. Bog'lovchisiz qo'shma gap

1-o'quvchi: Bunday qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar hech qanday bog'lovchi vositalarsiz bir-biri bilan bog'lanadi

2-o'quvchi: Bunday qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar ma'no va ohang yordamida bog'lanadi

3-o'quvchi: Yozuvda ular orasida vergul qo'yiladi

4-o'quvchi: Og'zaki nutqda ohang yordamida aniqlanadi

5-o'quvchi: Yangilikni eshitdik, xursand bo'ldik

Qo'shma gap: Demak, 3 ta turim mavjud bo'lib, ular ham o'z ichki imkoniyatlari, belgilariga ko'ra tasnif qilinarkan. Quyidagi gaplarni bir-birini o'rniga qo'llay olasizmi?

I-guruh: Kuz keldi va to'kinchilik boshlandi

II-guruh: Kuz keldi, shuning uchun to'kinchilik boshlandi

III-guruh: Kuz keldi, to'kinchilik boshlandi

#### **4. Yangi mavzuni mustahkamlash**

45-mashq. og;zaki bajariladi

46-mashq. I-guruh: bog'langan qo'shma qaplarni izohlaydi

II-guruh: Ergashgan qo'shma gap

III-guruh bog'lovchisiz qo'shma gap

Aralash qo'shma gaplarni aniqlang

47-mashq. I-guruh: Bog'lovchisiz qo'shma gap

II-guruh: Bog'langan qo'shma gap

III-guruh: Ergashgan qo'shma gap

48-mashq. „Kim chaqqon“ usulida har bir guruh bittadan gapni qo'shma gapga aylantiradi.

49-mashq. „Kuz keldi – rizq keldi“

II-guruh: „Mehnat qilib topganing – qandu novot topganing“

III-guruh: Darslikning 114-betida berilgan hunar haqidagi rivoyatni o'qib qo'shma gaplarni aniqlash, qissadan hissa chiqarib izohlash

#### **5. O'quvchilarni baholash.**

G'olib guruh aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

**6. Uyga vazifa:** qo'shma gaplar ishtirok etgan matn tuzish

**Mavzu yuzasidan test savollari.**

1. Qo'shma gaplar bog'lanish usuliga ko'ra necha xil bo'ladi?


A) 3 xil B) 2 xil C) 4 xil D) qo'shma gaplar bo'linmaydi

2. Bahor keldi va daraxtlar gullay boshladi. Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

A) ergashgan B) bog'langan C) bog'lovchisiz D) bu sodda gap







Sinfdagi o'quvchilar soniga qarab 3 guruhga bo'linadi. Guruhlarga topshiriqlar beriladi

1. Topshiriq: Quyidagi hikmatdan yasalish hodisasini tushuntiring?

***Andisha yaxshilik yo`liga poyandoz.***

2. Ishla, suvchi, guldon, bilim, aqli, paxtakor yasama so'zlardagi yasovchilarni ajratish.

3. Jadval asosida ilmiy diktant yozish.

Guruhlar taqdimot qiladilar va guruh a'zolarining fikrlari umumlashtiriladi.

**Darsni mustahkamlash:** Darslikdagi 60-mashq shartiga binoan yakka tartibda topshiriq bajariladi, jarayonda o'quvchilarning husnixati ham tekshirilib boriladi.

61-mashqni shartiga binoan elektron darslikdan foydalanib bajarish maqsadga muvofiq. Bunda kompyuter vositasida elektron darslikdagi **MASHQNI BAJARISH** tugmasi bosilib, undagi mashq topshirig'iga binoan nuqtalar o'rniga yasovchi qo'shimchalar qo'yiladi va xatolar tekshiriladi.

Faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

**Uyga vazifa:** 62-mashq. "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" mavzusida matn tuzish topshirig'i beriladi.

**Mavzu yuzasidan test savollari.**

1. Quyidagi qatorning qaysi birida faqat sodda tub soʻzlar berilgan?  
A) kitob, darsxona, bilim B) sinf, daftar, ball  
C) bilim, kitob, achchiq D) saʼva, sandiq, toshloq
2. Quyida berilgan javoblarning qaysi birida faqat yasama soʻzlar berilgan?  
A) achchiq, bilim, olma B) sabzi, odil, mazza  
C) achchiq, bilim, zamonaviy D) kalta, issiq, biz
3. Quyidagi qaysi qoʻshimcha yasovchi qoʻshimchalar sirasiga kiradi?  
A) –im B) –cha C) –man D) –sin
4. Quyidagi qaysi javobda yasama sifat berilgan?  
A) zamonaviy B) kitobxon C) mardona D) darsxona
5. Quyidagi qoʻshimchalardan qaysi biri yangi soʻz yasay olmaydi?  
A) –cha B) –chi C) –xon D) -loq

**Sana:**

**Sinf:**

**Fan:**

**Dars mavzusi: Qoʻshma feʼllar**

**Dars jihozi:** tarqatma materiallr: bolalarga moʻljallangan gazetalar, topshiriqni bajarish uchun tayyorlangan chizmalar.

**Dars uslubi:** “Panorama” mashgʻuloti

**Dars maqsadi:**

- a) taʼlimiy - feʼllarning tuzilishiga koʻra turlari yuzasidan malaka hosil qilish qoʻshma feʼllar haqida maʼlumot berish;
- b) tarbiyaviy - dars davomida mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi - mustaqil fikrlash doirasini oʻstirish, ogʻzaki hamda yozma nutq malakasini shakllantirish.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:**

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- d) sinf tozaligini tekshirish;
- e) oʻquvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

**Oʻtilgan mavzuni soʻrash va uyga vazifa:**

Bunda oʻquvchilardan uyga vazifa soʻraladi va oʻtilgan mavzu yuzasidan bir nechta savollar bilan murojat qilinadi.

**Yangi mavzu bayoni:**

1–topshiriq. **Yangilanmoq** va **yangi boʻlmoq** feʼllarini bir-biriga solishtirishadi, ular oʻrtasidagi farqlarni aytishadi.

- topshiriq. *Onam bilan miriqib suhbatlashdim* gapi tarkibidagi feʼlni *suhbat qurdim* shakliga oʻzgartiring. Buning gap maʼnosiga taʼsir qilishi yoki qilmasligi toʻgʻrisida oʻylab koʻring.

O`quvchilar o`z fikrlarini baxs-munozaraga kirishgan holda ifodalashlari uchun o`qituvchi o`ziga xos savollar berib borishga tayyor turishlari kerak.

quyidagi ko`rsatmali qurol ( yoki slayd) orqali qo`shma fe'llar haqida o`quvchilarga ma'lumot beradi.




Gazetadan tanlangan so`zlar	Otda n	Sifatda n	Taqli d so`zdan	Undo v so`zdan	Fe'ldan
Olib chiqdi					(nima qilmoq+nima qilmoq)
Javob berishdi	(nima + nima qilmoq)				
Taq etdi			(nima + nima qilmoq)		
yangilamoq		Sodda fe'l. (sifat -la)			

Mustahkamlash; "Panarama" mashg`uloti asosida amalga oshiriladi. Har bir partaga gazeta yoki jurnal qo`yib chiqiladi. Oquvchilar o`qituvchi tomonidan berilgan tarqatmaga matbuot sahifasidan topgan qo`shma fe'llarni yozib chiqadilar. So`ng tarqatma qog`ozlar to kataklar to`lmaguncha partama-partama almashtiriladi. Almashgandan so`ng qolgan topshiriqlarni bajaradilar. Qog`oz oxiri o`z egasiga yetib kelishi kerak. Ular yaxshilab o`qib chiqib umumiy xulosaga keladi va

taqdimotga chiqadilar. Bu mashg'ulot orqali sinfdagi barcha o'quvchining o'zlashtirganlik darajasini bilib olish mumkin.

Darslikdagi mashqlarni bajaritirish orqali mavzu mustahkamlanadi:

188- mashq. Og'zaki bajariladi, ya'ni o'quvchilar berilgan gaplardan qo'shma fe'llarni topib, yuqorida o'rganilgan qoida asosida ularning yasalişini tushuntiradi. 189- mashq. Yozma, mustaqil bajariladi. Matn ko'chiriladi. Qo'shma fe'llarni va ko'makchi fe'li so'z qo'shilmalarini topib tagiga chizadilar, ularning yasalişini izonlaydilar. So'ngra yozuv taxtasidagi quyidagi chizma chizilgan qog'ozga (yoki yozuv taxtasining o'ziga oldindan chizib qo'yilgan) qo'shma fe'l va fe'l qo'shilmalarini to'g'ri aniqlanganligini sinash maqsadida bittadan chiqib matnda ostiga chizgan so'zlarini yozadilar:



Dars yakunida o'quvchilarning qo'shimcha ball to'plashlari uchun quyidagi savollar va topshiriqlar beriladi;

Fe'llar tuzilishiga ko'ra necha xil bo'ladi?

Sodda yasama fellarga misollar keltiring

Qo'shma fe'l deb nimaga aytiladi?

Qo'shma fe'llar qanday yasaladi?

Qo'shma fe'llarning imlosi haqida nimalar o'rgandingiz?

Dars yakunida o'quvchilar to'plagan ball e'lon qilinadi. Uyga vazifa qilib 190-mashq asosida "O'zbekona urf-odatlar" mavzusida matn yaratish, unda qo'shma fe'llardan foydalanish topshiriladi.

**Sana:**

**Sinf:**

**Fan:**

**Dars mavzu: Sifatlarning yasalişhi**

**Dars jihozi:** Darslik, elektron darslik, rangli rasmlar, qog'oz, skotch, flomaster, gul.

**Dars uslubi:** Aqliy hujum.

**Dars maqsadi:**

a) **ta'limiy** - sifatlarning yasalişhi, sifat yasovchi qo'shimchalar haqida bilim berish;

b) **tarbiyaviy** - o'quvchilarda oilaga va ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg'usini tarbiyalash, insonparvarlik xususiyatlarini shakllantirish;

**d) rivojlantiruvchi** - o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o`strirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o`rgatish.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:**

**a) salomlashish;**

**b) davomatni aniqlash;**

**d) sinf tozaligini tekshirish;**

**e) o`quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.**

Uyga vazifani so`rash: O`quvchilar tomonidan 327-mashq "Tong" mavzusida tuzib kelingan matn o`qitiladi.

Namuna: 1-variant. Tong.

Tonggi shudring, tonggi shabada, tonggi shabnam-soflik ramzi. Quyosh nurlarining porlab turishi nayotning yer yuzida davom etayotganidan darak beruvchi elchidir. Maysalarning, gullarning, barglarning ustiga tushgan shudring tomchilari olmos kabi yaltirab, ko`ngilni shod etadi.

Tongdagi qushlarning chug`urlashi musiqaday jarangli. Gul yuziga tushgan quyosh zarrin nurlarining salom berishini nafis gul yaproqlari quvonch ila o`z bag`riga olmoqda. Saxiy quyoshning ufqdan bosh ko`tarishini xohlayotgan jamiki mavjudotlar intizorlik bilan kutgan soniyalar keldi. Tongda aks etgan soflik, beg`uborlik, ezigulik, poklik hayotning naqadar go`zal va zavqli ekanligini bildiradi.

2-variant: Ufq osmonida tortilgan mato qip-qizil rangga bo`yaladi. So`ngra musavvir-Quyoshning o`zi chiqib keldi.

3-variant: Tong olam bozoriga allaqachon zebi-ziynatlarini yoygach, savdo qilish uchun chiqqan do`kondor, saxiy quyosh o`z o`rniga o`tiradi.

O`quvchilar matnni diqqat bilan eshitib, matnda keltirilgan sifatlarni eslab qolishga harakat qiladi. Matnni tuzishda ijodkorlik bilan badiiy so`z san`atidan mohirlik bilan foydalana olgan va matndagi sifatlarni yaxshi eslab qolgan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

**Aqliy hujum.**

Sinf o`quvchilari guruhlariga bo`linadi, o`tilgan mavzular yuzasidan har bir guruhga 2 ta dan savol beriladi. Savollar quyidagicha bo`lishi mumkin:

1-guruhga: 1. Qanday so`zlar sifat so`z turkumiga oid bo`ladi? 2. Sifatlar gapda qanday gap bo`lagi bo`lib keladi?

2-guruhga: 1. Sifatlar qaysi so`z turkumiga bog`lanadi? 2. Mustaqil so`zlar bilan yordamchi so`zlar qanday farqlanadi?

3-guruhga: 1. Sifatlar qanday so`roqlarga javob bo`ladi? 2. Sifatlarning qanday ma`no turlarini bilasiz?

4-guruhga: 1. Qanday so`z yasovchi qo`shimchalarni bilasiz? 2. So`z yasovchi qo`shimchalarning vazifalari nimadan iborat?

5-guruhga: 1. So`z tarkibi nimalardan iborat bo`ladi? 2. Qo`shimchalar vazifasiga ko`ra necha turga bo`linadi?

Guruhlarning bergan javoblari umumlashtiriladi va guruh a`zolari rag`batlantiriladi. Shu tarzda o`tilgan mavzu takrorlab olinadi.

**Yangi mavzuning bayoni:** 1- bosqich. “Zanjir” o`yini tashkil etiladi. Har bir guruh a`zosi o`z ismlarining bosh harfi bilan boshlanadigan sifatlarga misollar topib, o`z qo`llaridagi gulni bir-birlariga tezkorlik bilan uzatishadi. Ikkilanib qolgan yoki xato aytgan o`quvchi zanjirni uzgan hisoblanadi va o`yindan chetlashtiriladi. 2-o`yin sifatlardan atoqli otlarga o`tgan sifatlarga navbat bilan misollar keltirishadi.

Namuna: Aziz, botir, nafis, gulli va h.zo.

2-bosqich. O`quvchilarning qo`llariga yelimli yopishqoq qog`ozga so`z yasovchi qo`shimchalar yozilgan holda tarqatiladi va doskaga o`tilgan mavzular yoziladi.


O`quvchilarning qo`lidagi so`z yasovchi qo`shimchalar qaysi so`z turkumiga oid bo`lsa, o`sha so`z turkumining tagiga yopishtiriladi. Har ikkalasiga ham mansub bo`lmagan qo`shimchalar doska chetiga yopishtiriladi. Namuna:

OT	FE'L	
-don	-la	-li
-dosh	-lan	-dor
-chi	-lash	-no
-bon	-ira	-choq
-boz	-sira	-iq
-chil		


Topshiriqda berilgan so`zlar tarkibiy qismlarga ajratiladi:

shirin, oq, katta, shira-li, mazmun-dor, ser-unum, kam/hosil, ko`ylak/bop, xush/fe'l. O`quvchilarga sifatlarning yasalishi “slayd” orqali tushuntiriladi.

Sifatlar ikki xil usul bilan yasaladi



:



-Slaydga—(gulli mato, tadbirkor kishi, serhasham uy, gʻamxoʻr qiz suhbatlashayotgan holati tasvirlanadi.



guldor mato



serhasham uy



tadbirkor kishi




g`amxo`r qiz

Rasmlarga so`z yasovchi qo`shimchalar qo`shib sifat hosil qilinishi tushuntiriladi. Masalan: mato, tadbirkor kishi, serhasham uy, g`amxo`r so`zlari tarkibi tasnif qilinadi. So`z yasovchi qo`shimchalarning vazifasi, asosga qo`shilib sifat hosil qilishi boshqa so`z turkumlaridan sifatning yasalishi tushuntiriladi.)

Shu o`rinda shakldosh, ma`nodosh, zid ma`noli qo`shimchalar haqida ham ma`lumot berib o`tiladi.

(Omonim) shakldosh qo`shimchasi

-ma



Fe`ldan sifat yasaydi  
qo`shimcha

(qo`shma, terma, ko`chma)

Fe`ldan ot yasaydi


(O`sma, tortma)

Lug`aviy shakl yasovchi

(Kelma)

(Sinonim) ma`nodosh qo`shimchalar

-li, -dor






Aybli, aybdor

Mazmunli, mazmundor

Jarangli, jarangdor

(Antonim) zid ma'noli qo'shimchalar  
-li, -siz




Mazmunli, mazmunsiz

Jarangli, jarangsiz

Ko'rimli, ko'rimsiz

**BILIB OLING.** Sifatlar tarkibiga ko'ra tub va yasama sifatlarga bo'linadi. Tarkibiy qismlarga bo'linmaydigan sifatlar tub sifatlar, asos va so'z yasovchi qismdan iborat bo'lgan sifatlar esa yasama sifatlar hisoblanadi. Yasama sifatlar asosga qo'shimchalar qo'shish yoki so'z qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun 328-mashq yozma bajariladi. To'g'ri va xatosiz bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi. O'zlashtirishga qiynalgan o'quvchilar o'qituvchining diqqat markazida bo'ladi. Ularga individual yordam ko'rsatiladi. O'quvchilar qo'llarida oldindan tayyorlangan quyidagi:



Shakldagi ko'rsatkichlar bo'ladi. O'qituvchi tomonidan aralash o'qilgan sifatlarni (katta, shirin, chiroyli, odobli, guldor, sariq, oq, serdaromad, qizil, bezarar, kamhosil, bexavotir, badavlat, gapdon, shinam, yaxshi, basavlat, nodon, unimsiz, sho'x, vijdotsiz, tetik, ziyrak, sirdosh, shaxsiy, oddiy, achchiq) tub yoki yasama sifat ekanligini ajratib, qaysi sifatga oid ekanligini qo'llaridagi ko'rsatkichlar orqali ko'rsatib boradilar. Yuqoridagi ko'rsatkichlar orqali ajratib beradilar. Bu o'yin ham o'qituvchi tomonidan ziyraklik bilan kuzatib boriladi. Faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. O'zlashtirishga qiynalayotgan

o`quvchilar ham o`qituvchi nazaridan chetda qolmasligi kerak. 3-4 martagacha xato qilgan o`quvchiga qo`shimcha topshiriq – tarqatma materiallar beriladi. Ballar yig`ilib g`olib guruh e`lon qilinadi. Dars so`ngida o`quvchilar banosi eshittiriladi. Shundan so`ng muammoli vaziyat o`quvchilar bilan birgalikda hal qilinadi, demak yozuv taxtasi chetiga yopishtirilgan so`z yasovchi qo`shimchalar sifat so`z turkumiga oid ekanligini o`quvchilar o`zlari xulosalab beradi va ajratilgan so`z yasovchi qo`shimchalar tepasiga “Sifat” deb yozib qo`yiladi. Yozuv taxtasida quyidagi ko`rinish hosil bo`ladi.

OT	FE'L	SIFAT
-don	-la	-li
-dosh	-lan	-dor
-chi	-lash	no-
-bon	-ira	-choq
-boz	-sira	-iq
		-chil

Muammo shu tarzda yechiladi. Darslikdagi 328-mashq yozma daftarda, 330-mashq kompyuterda bajariladi. Dars so`ngida baholar va g`olib guruh eshittiriladi, faol qatnashgan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

**Uyga vazifa.** 329-mashq

**Sana:**

**Sinf:**

**Fan:**

**Dars mavzusi: Ravishlarning yasalishi. Tub va yasama ravishlar**

**Dars jihozi:** Darslik, elektron darslik, grammatik topishmoq

**Dars uslubi:** Tushunchalar tahlili, zinama-zina

**Dars maqsadi:**

**a) tarbiyaviy** - ravishlarning yasalishi. Tub va yasama ravishlar, ularning hosil bo`lishi, turlari haqida ma`lumot berish;

**b) tarbiyaviy** - o`quvchilarga axloqiy va nafosat tarbiyasini singdirish;

**d) rivojlantiruvchi** - og`zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:**

**a) salomlashish;**

**b) davomatni aniqlash;**

**d) sinf tozaligini tekshirish;**

**e) o`quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.**

**O`tilgan mavzuni takrorlash.** *Bunda grammatik topishmoqdan foydalaniladi.*

Namuna: Ish harakat, holatning

Ko`p, ozligini bildirar.

Qancha xizmat qilsa ham,

Fe'l so`zlarga ergashar (javob- ravish).

O`quvchilar topishmoqning javobini aytadilar.

**Uyga berilgan vazifani so`rash.** *Adabiyot kitobidan yozib kelingan gaplarni o`qib, ularda qatnashgan ravishlarni aytadilar. Berilgan tushunchalarga izoh va uning mazmuni tarzida javoblar quyidagi “T” chizma jadvaliga joylashtiriladi.*

<b>Tushunchalar</b>	<b>Mazmuni</b>
Ravish haqida	Fe'l so'zlarga ergashib, ish-harakatning belgisini bildirgan so'zlar ravishdir.
Ish-harakatning bajarilish tarzi	
Ish –harakatning bajarilish payti	
Ish-harakatning bajarilish o'rnini	
Ish-harakatning daraja-miqdori	

**Yangi mavzuning bayoni:** Mavzuni o'rganish darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarga ravishlarning yasalishi, tub va yasama ravishlar haqidagi tushunchalarni singdirish tarzida tashkil etiladi.

1-topshiriqqa ko'ra o'quvchilar berilgan ravishlarni tarkibiy qismlarga ajratadilar.

Namuna: yillab-yil-lab, qahramonona-qahramon-ona.

2-topshiriqda esa ana shu tarkibiy qismlarga ajratilgan so'zlarning asos qismining qaysi so'z turkumiga mansubligi aniqlanadi.

Namuna: yil-asos, ot,-lab-ravish yasovchi qo'shimcha.

3-topshiriq esa "**Bu so'z bizniki**" o'yini tarzida bajartiriladi. Bunda sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi. Berilgan ravishlardan "Bilimdonlar" guruhi tub ravishlarni, "Donolar" guruhi yasama ravishlarni ajratib yozadilar.

Namuna: **Tub ravishlar:** hamisha, aslo, doimo.

**Yasama ravishlar:** tonnalab, ustma-ust, birin-sirin

Guruhlar o'z javoblarini aytganlaridan so'ng o'qituvchi tomonidan yangi mavzuga oid qo'shimcha nazariy fikrlar beriladi.

**Esda saqlang. Ravishga asos qism ot, sifat, sifatdosh ba'zan ravish bo'lishi mumkin.**

**Darsni mustahkamlash:** Darslikda berilgan 431-mashq "Kim jadvalni tez va to'g'ri to'ldiradi?" o'yini tarzida bajariladi. Bunda o'quvchilar o'z guruhlarida topshiriqni bajaradilar. Berilgan gaplardan birinchi guruh tub, ikkinchi guruh yasama ravishlarni topib, jadvalni to'ldiradi. Namuna:

<b>Tub ravishlar</b>	<b>Yasama ravishlar</b>
<b>Darrov, ancha</b>	<b>O'zidan-o'zi, ertalab</b>

432-433-mashqlar sharti "**Kim chaqqon va zukko?**" o'yini tarzida o'quvchilarga mustaqil bajartiriladi.

Namuna: Yomonlarga aslo yaqinlashmang.

Dars so'ngida savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirganlik darajasi aniqlanadi. Bu quyidagi savollar asosida amalga oshiriladi.

1. Qanday ravishlar tub ravishlar deyiladi?
2. Yasama ravishlar qanday yasaladi?

**Uyga vazifa:** "Lola saylida" mavzusida hikoya yozish.

**Sana:**

**Sanf:**

**Fan:**

**Dars mavzusi: Olmoshning tuzilishiga ko`ra turlari**

**Dars jihozi:** Mavzuga oid ko`rsatmali qo`llanma, Darslik, «Adabiy- ma`rifiy matnlar» to`plami (Toshkent 2010 y).

**Dars uslubi:** Charxpalak texnologiyasi

**Dars maqsadi:**

a) **ta`limiy** - o`quvchilarning olmosh so`z turkumi yuzasidan mavjud bilim va ko`nikmalarini mustahkamlash;

b) **tarbiyaviy** - olijanoblik, kechirimli bo`lish kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish;

d) **rivojlantiruvchi** - mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish, yozma nutqni o`stirish.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:**

a) salomlashish;

b) davomatni aniqlash;

d) sinf tozaligini tekshirish;

e) o`quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

1. **O`tilgan mavzuni so`rash:** O`z diktant. Ko`chma doskaga yoki vatmanga yozib qo`yilgan matn asosida o`z diktantni o`tkazish qoidasiga muvofiq mustaqil amalga oshiriladi. Taqdim etilgan matn yoddan yozilgandan so`ng o`quvchilar diktantlarini matnga qarab tuzatadilar, yo`l qo`yilgan imlo xatolari yuzasidan xulosa chiqaradilar.

Bunda quyidagi kabi matnlardan foydalanish mumkin.

Namuna:

**Orzim shul o`chmasin yongan chirog`ing,  
Yulduzday nur sochsini chashming qarog`ing.  
Magar chinor bo`lsang chinorday yasha,  
Bevaqt uzilmasin biror yaprog`ing.**

(A. Oripov).

Mavjud sharoit va imkoniyatga qarab takrorlanayotgan mavzular maqsadidan kelib chiqqan holda matndagi ayrim gaplar tahlil qilinadi.

Darslik bilan ishlash. 1-topshiriq. Berilgan gaplardagi olmoshlarni turlariga ko`ra jadvalga joylashtiradilar.

Namuna:

Sodda olmoshlar	Qo`shma olmoshlar	Juft olmoshlar	Takroriy olmoshlar
Men	Mana shu	U-bu	SHu-shu

hamda 81-82-mashq shartlarini o`qib, og`zaki va yozma javob beradilar. Mashqlar bajarilgandan so`ng olmoshlarning ma`no turlari, gapdagi vazifasi, nutq ifodasidagi o`rni izohlanadi.

83-84- mashqlarni ham bajarish jarayonida olmosh so`zlarning tuzilishiga ko`ra turlari o`zlashtiriladi, matn yaratish qobiliyatlari, tahliliy ko`nikmalari rivojlantiriladi.

Matn tahlili. "Ahmad al Farg`oniy" sarlavhali matn tahlili jarayonida DTS talablariga muvofiq o`quvchilarning o`qish texnikasi (miqdoriy ko`rsatkichiga

ko`ra), ifodali o`qish malakasi, matndagi hikoyani izohlay olish (qayta hikoya qilish emas), voqealar rivojiga mustaqil ravishda munosabat bildirish, bog`lay olish, qissadan hissa chiqarish kabi ko`nikmalarni tarkib toptirish kabi jihatlarga e`tibor qaratiladi.

Ahmad al –Farg`oniy

Bu buyuk insonning nomi ma`lum va mashhurdir. Sharqda uni al-Farg`oniy, g`arbda esa Alfaganis deb ulug`langan. Uning nomi tarix sahifalarida o`sha buyuk Aristotel, Platon, Pifagor, Arximed, Beruniy kabilarning nomlari bilan bir qatorda turadi.

Ahmad al –Farg`oniy 797 yilda ana shu go`zal Farg`ona tuprog`ida tug`ilgan. Avval shu erning mahalla masjidida o`qigan. Keyin o`sha davrning mashhur madrasalarida ta`lim olgan. U astronomiya, matematika va geografiya bo`yicha qimmatli meros qoldirdi. Ahmad al-Farg`oniyning ana shu kitoblari asosida g`arb universitetlarida mashg`ulotlar o`tkazilgan. Sayohatlar davomida noyob qo`lyozmalarni to`pladi, ularni arabchaga tarjima qilib, sharhlar edi. 816 yilda vatandoshimizning loyihasi asosida Nil daryosida katta inshoot qurilgan. Ana shu inshoot ko`p asrlar Misr xalqida xizmat qilgan. Bu buyuk olim xalqimizning faxr va shuhratidir.

Topshiriqlar:

1. Matndagi olmoshlarni aniqlang
2. Olmoshlar gapdagi qaysi so`zlarga bog`langan?
3. Olmoshlar qanday qo`shimchalar bilan birga qo`llangan va qaysi so`roqqa javob bo`lib kelgan?

“Charxpalak” texnologiyasi.

Mazkur texnologiya o`rganilgan mavzular bo`yicha o`zlashtirgan bilim, ko`nikma va malakalarini takrorlash, mustahkamlash, ijodiy fikrlab, savol- topshiriqlarga mustaqil javob berish va o`z-o`zini baholashga hamda qisqa vaqt ichida aksariyat o`quvchilarni baholash imkoniyatini beradi.

Mashg`ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam( yoki flomaster) lar.

Mashg`ulotni o`tkazish tartibi:

-sinf guruhlarga bo`linadi;

-har bir guruh a`zosi “Olmosh so`z turkumi” mavzusiga oid topshiriq yozilgan varaq tarqatiladi.

-guruh a`zosi tarqatma materialning o`ng burchagiga guruh raqami yoki nomini, chap burchagiga o`zining belgisini (ramziy) chizib qo`yadi;

-topshirig`i bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga “Charxpalak” aylanmasi tarzida almashtiriladi.

**Mustahkamlash darslikda** berilgan savol va topshiriqlar asosida tiashkil etiladi.

**Dars yakunlanib**, “Mustaqillik bizga nima berdi” mavzusida olmosh turlaridan foydalanib, matn tuzib kelish uyga vazifa qilib beriladi.

**Sana:**

**Sinf:**

**Fan:**

**Dars mavzusi: Kirish suhbat. “So`zdan so`zning farqi bor...”**

**Dars jihozi:** Darslik, rasmlar, kartochkalar, matnlar “Xalq maqollari” kitobi, grammatik topishmoqlar to`plami.

**Dars uslubi:** Didaktik o`yin, suhbat

**Dars maqsadi:**

**a) ta`limiy** - o`zbek tilining boy ifoda vositalari, lug`at boyligi, uning boyish manbalari haqida o`quvchilarning mavjud bilim, tushunchalarini kengaytirish, mustahkamlash;

**b) tarbiyaviy** - do`stona muhitda hamkorlikda ijodiy ishlash, so`z kuchini inson hayotidagi o`rnini anglash;

**d) rivojlantiruvchi** - mustaqil ijodiy fikrlash va matn yaratish ko`nikmalarini rivojlantirish.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:**

**a) salomlashish;**

**b) davomatni aniqlash;**

**d) sinf tozaligini tekshirish;**

**e) o`quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.**

**1- bosqich.** Kirish suhbat. Dars suhbat usuli bilan boshlanadi. Suhbat jarayonida quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Istiqloq yillarida siz yashab turgan mahalla (qishloq, shahar, tuman, viloyat) da qanday o`zgarishlar bo`lganini izohlay olasizmi?

2. Milliy g`oya deganda nimani tushunasiz?

3. Mustaqillik va ona tilini madh etuvchi she`rlardan yod ayting va izohlang.

Ona tilim –onam alla aytgan til,

Ko`zlarimga surtay har bir so`zingni.

Sen borsan dunyoda o`zbek degan el,

Kuylab yashayveray qora ko`zimni.

Grammatik topishmoq orqali 7-sinfda o`rganilgan bilimlar esga olinadi.

**Grammatik topishmoq:**

<i>Yigitlarga vazminlik, Qizlarga bo`lsin ibo. Donoga bag`rikenglik, Yo`shlarda bo`lsin hayo. Qanday qo`shimchadir –lik, Qanday so`z bag`rikenglik. (mavhum ot yasovchi)</i>	<i>Kitob o`qidi Erkin, Oynomamizni Shirin. Qaysi so`zda kelishik Qo`shimchasi yashirin? (tushum k.)</i>
--	---

<p><i>Yema ovqatni to`yib, Oz ye, tez-tez och qolib. Shunda jismoniy mashqni, Eplaysan qoyil qilib. Ye qanday so`zdir gapda, Ham qanday vazifada. (buyruq fe`li)</i></p>	<p><i>Qalam bilab yozamiz, Men bilan sen yozamiz. E`tibor bering gapga, Bunda ikki bilan bor, Bir-biridan farqi bor, Toping qanday farqi bor? (Bog`lovchi, ko`makchi)</i></p>
<p><i>Bosh bo`lakdan tuzilar, Kichik gapday ko`rinar? (soda yig`iq gap)</i></p>	<p><i>Ergash bo`laklari bor, Ham bosh bo`laklari bor. (Sodda yoyiq gap)</i></p>

**2-bosqich. Yakka tartibda ishlanadi.** Bunda har bir o`quvchiga rasmi kartochka tarqatilib, uni kuzatish va rasm mazmuni asosida 2 -3 jumlati matn tuzish topshirig`i beriladi. Mustaqil ish natijasi 3-4 o`quvchiga o`qitilgandan so`ng kuzatuvchilar tomonidan (jarayon boshlanishidan oldin 2 o`quvchidan iborat kuzatuvchi belgilangan bo`ladi) ish mazmuniga baho berishda o`quvchilarning tilimiz imkoniyatidan qay darajada foydalana olganliklariga, ifoda vositalarining rang – barangligiga e`tibor qaratiladi.

**3-bosqich. Guruhlarda ishlash.** Sinf inson qobiliyatiga nisbat berilgan so`zlar yordamida (m: zukkolar, topqirlar, bilimdonlar, chaqqonlar va h.) guruhlariga ajratiladi. Guruhlarga bir mavzu yoki voqea – hodisa turlicha yoritilgan yoxud talqin etilgan matn tarqatiladi (bunda darslikdagi matnlardan foydalanish tavsiya etiladi).

### **Mukofot va jazo (matn)**

#### **1-guruhga:**

*Bir kuni podshoh kechasi ko`rgan tushini munajjimga so`zlab berib, ta`birini so`rabdi. U tushga shunday ta`bir beribdi:*

*-Shohim, sizning barcha yoru do`stlaringiz o`lib ketadi, siz yolg`iz qolib, ko`p azob chekasiz.*

#### **2-guruhga:**

*G`azablangan podsho munajjimga jazo beribdi.*

*Shu tushni vazirga aytibdi. Vazir shunday ta`bir beribdi:*

*-Shohim bu qutlug` tush sizga muborak bo`lsin. Sadaqalar bering, bandilarni zindondan ozod qiling. Tangri sizni barcha yoru do`stlaringizdan uzoqroq umr ko`rish baxtiga muyassar qiladi. Podsho vazirni taqdirlabdi.*

#### **3 guruhga:**

*Podsho o`g`liga: Tushga har ikkalasi ham ta`birni bir xil berdi. Lekin qaysisi qanday tarzda -dedi o`g`il. Gap xuddi mana shunda-da.*

#### **4-guruhga:**

*So`z tanlash, muloyim so`zlash, o`ylab gapirish haqida qanday xalq maqol va hikmatli so`zlarni bilasiz?*

*(Ilova: Maqol va hikmatli so`zlar)*

- 1. So`z doriga o`xshash, ortiqchasi zarar qiladi.**
- 2. Til shirinligi-ko`ngilga yoqimli, yumshoqligi-foydali.**
- 3. Ko`ngli va tili bir bo`lgan kishining aytgan so`zi but.**
- 4. Aytilmagan so`z-sof oltindir. Tildan chiqqan so`z esa, misdir.**
- 5. So`z o`likni tiriltirur, tirikni o`ldirur. (“Hikmatlar xazinasi” kitobidan.**

**4-bosqich.** “Soʻzdan soʻzning farqi bor, oʻttiz ikki narxi bor”, “Donoga ishora-nodonga kaltak” maqollarining mazmunini izohlash.

A. Navoiyning “*Soʻz durrining tafovuti mundin dagʻi (ham) begʻoyatroq (cheksizroq) va martabasi mundin ham benihoyatroqdir. Adoqki, sharifidin (taʻsiridan) oʻlgan badangʻa ruhi pok etar (toza ruh bagʻishlaydi), kasifidin (kasofatidin) hayotliq tangʻa zahri halok xosiyati (oʻldiruvchi zahar xosiyatini) zuhur etar (hosil qiladi)*” degan fikrini ham izohlash.

Guruhlarning taqdimotlari yakunlangach, xulosa qilinadi. Demak, soʻzning qudrati shu darajadagi, u insonga jon bagʻishlashi ham, hayotini zaharlab, halokatga olib kelishi ham mumkin ekan.

**Bilib oling: Inson oʻzining maʼlum bir fikrini turli soʻzlar yoki iboralar vositasida turlicha ifodalashi mumkin. Bunday oʻzgacha ifodani soʻzlovchining bilim saviyasi, hayotiy tajribasi, soʻz boyligi va nutq paytidagi vaziyat belgilaydi.**

**Darsni mustahkamlash:** Ayni bir fikrni turlicha ifodalash mashqi. (“**Sendan ugina, mendan bugina**” oʻyini) Masalan: *Nozima indamas, pismiqlik qiz. Nozima kamgap, ichimdagini top deydiganlardan. Salima kasal boʻlib qolibdi. Salimaning bir oz tobi qochibdi.*

**Matn yaratish:** “*Tigʻ yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi*” maqoli asosida matn yaratiladi.

Matn taxminan shunday boshlanadi: Ota-onalarimiz, ustozlarimiz doimo shirinsoʻz boʻlishga oʻrgatadilar. Yaxshi soʻz ham, yomon soʻz ham bir ogʻizdan chiqadi. Hammaga yaxshi muomalada boʻlish darkor. Dilozorlik qilish kerakmas. Bunday odamdan hamma bezor.

**Uyga vazifa:** Mustaqillik va istiqloq, kelajak va istiqbol soʻzlarini ishtirok ettirib matn tuzish.

**Sana:**

**Sinf:**

**Fan:**

**Dars mavzusi:** Vositasiz toʻldiruvchi

**Dars jihozi:** texnik vositalar, rangli rasmlar, jadval

**Dars uslubi:** tadqiqot, klaster, mantiqiy fikrlash.

**Dars maqsadi:**

**a) taʼlimiy** - vositasiz toʻldiruvchi haqida nazariy maʼlumot berish asosida oʻquvchilarning ikkinchi darajali boʻlaklar haqidagi bilimlarini kengaytirish;

**b) tarbiyaviy** - oʻquvchilarni kitobsevarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

**d) rivojlantiruvchi** - oʻquvchilarning , ogʻzaki va yozma nutq savodxonligini oʻstirish.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:**

**a) salomlashish;**

**b) davomatni aniqlash;**

**d) sinf tozaligini tekshirish;**

**e) oʻquvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.**

**Oʻtilgan mavzuni soʻrash:** (Diqqatni jamlash uchun topishmoqlar)

*Shahar va qiz bolaning ismi boʻlgan soʻz- (Madina)*



Ish- harakat va inson tana a`zosini anglatuvchi so`z--.(soch)

U ham so`z turkumini ham hayvonni anglatadi . (ot)

Qaysi ta`na a`zomiz ravish so`z turkumida ham bor? (burun)


Ham ish- harakatni bildiradi, ham hayvonning nomi. (qo`y)

U shunchalik kuchliki, bitta o`zi harakatni, tana a`zosini, millatning belgisini, fanni ifodalaydi. O`likka jondan nishon beruvchi ham, tirikni o`ldiruvchi ham u. (til)

Uy vazifasining tahlili. O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

1. "Bobomdan tanbeh eshitdim" mavzusida o`quvchilar yozib kelgan bayon matnini "Notiqlar bellashuvi" usulida tinglash.

"To`ldiruvchi" mavzusini klaster usulida mustahkamlash.



**Yangi mavzu:**

**1-topshiriq:** rasmlarda ifodalangan ish- harakatni o`timli va o`timsiz fe`llarga ajratib yozing



Harakatlar multimedia orqali ekranda namoish qilinadi. Tekshiring.

O`timli fe`llar: o`qidi, yozdi, gapirdi, aytdi, dazmolladi, pishirdi, kiydi.

O`timsiz fe`llar: raqsga tushdi, yugurdi, bordi, kiyindi, tarandi,

**2-topshiriq.**

O`timli fe`llarga tobe so`zlar toping.

Masalan: o`qidi--- kitobni o`qidi. Gapirdi—haqiqatni gapirdi. O`yladi—Oqibatini o`yladi. Magnitofondan turli harakatlarning ovozi eshittiriladi. O`quvchilar bu tovushlardan nimalarning harakati ekanini aniqlashadi va darhol ikki guruhga: o`timli – o`timsizga ajratib yozishadi. Shamol esmoqda. Suv shildiramoqda. Birov eshikni taqillatdi. Bola yig`ladi.

### **3-topshiriq.**

Tuzgan so`z birikmalaringizni kengaytirib gap hosil qiling. Nargiza “Ufq” romanini qiziqib o`qidi. Bir ish qilishdan oldin uning oqibatini o`ylash kerak. Xurshid kecha sinf yig`ilishida haqiqatni gapirdi.

Fe`lga bog`langan tobe so`zga savol bering va uning gapdagi ahamiyatini tushuntirishga harakat qiling.

Salima do`sti sovg`a qilgan kitobni o`qidi. Nimani?

### **Esga oling.**

Kimni? nimani? so`rog`iga javob bo`ladigan so`zlar bilan birikma hosil qiladigan fe`llar o`timli fe`llardir.

**Bilib oling. To`ldiruvchi tushum kelishigi qo`shimchasi - ni bilan belgili va qo`shimchasiz– belgisiz ko`rinishlarda kela oladi.**

**Belgili va belgisiz tushum kelishigi shakllari bilan ifodalangan to`ldiruvchi vositasiz to`ldiruvchi deyiladi.**

**“Hikmatlar xazinasi”o`yini.** (vositasiz to`ldiruvchi ishtirokida hikmatlar kitobini maqollar bilan to`ldirish.)

Maqollarni davom ettiring.

Ilmni mehnatsiz... (egallab bo`lmas)

Tilni ko`p bilgan,.....(ko`pni bilar.)

Tilni oz bilgan,.....(o`zini bilar)

So`z qadrini bilmagan,.....(o`z qadrini bilmas.)

So`z aytganda o`ylab ayt,.....(oqibatini bilib ayt.) Bu maqollarning barchasida vositasiz to`ldiruvchilar ishtirok qilgan.

189- mashqni savodxonlik musobaqasi asosida bajarish.

Kitobni yopib, mashqni diktant tarzida yozing.( O`qituvchi aytib turadi. )

Vositasiz to`ldiruvchini topib, qaysi so`z turkumi bilan ifodalanganligini aniqlang.

(Har qatordan bir o`quvchi doskada xatosiz va husnixat bilan yozish bo`yicha bellashadi. Diktant darslikka qarab o`zaro tekshiriladi.)

### **“Kitobxonlar “bellashuvi**

1-shart; Breyn ring.

Badiiy asar nomi yoki qahramonlarini qo`llab og`zaki gap tuzish. Gaplarda vositasiz to`ldiruvchi ishtirok qilishi shart.

Masalan: “Sariq devni minib” asarini qiziqib o`qidim. “Chinor” romanini qiziqib o`qidim. Abdullatifni nafs o`z domiga tortdi.

(Musobaqa qatorlar o`rtasida bo`ladi)

### **2-shart. She`riyat**

Vositasiz to`ldiruvchi ishtirok qilgan she`riy parchalar aytish.

Masalan: Ona tilim, sen borsan, shaksiz,

Bulbul kuyin she`rga solaman.

Boshing egib, ta`zim ayla, shukrona ayt, (belgisiz)

Seni guldek erkalagan chaman uchun (belgili)

Osmonlarda yurgan bo`lsang tuproqqa qayt,  
Aytgil ,do`stim ,nima qildik Vatan uchun?

190- mashq. Mashq shartini “Yuksak ma`naviyat –yengilmas kuch” asari asosida bajarish

Ko`chirma gapli qo`shma gaplarni murakkab vositasiz to`ldiruvchili sodda gapga aylantiring.

“Insonni, uning ma`naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo`lsa, so`z san`ati, badiiy adabiyotdir,”- deydi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov.

Yurtboshimiz ta`kidlaganidek, “... Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg`u asbobi bo`lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta`sirini o`z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag`a bo`lmaydi”.

### **O`yla, izla, top!**

A.Qahorning tug`ilgan kunini bilasizmi? 17-sentabr

“Xazoyin ul maoniy” kulliyotini nechta devon tashkil qiladi? 4 ta

Maqolni to`ldiring: ..... kessang, o`nni

ek.

Birni

Payg`ambarimiz yaxshilikni birinchi bo`lib onamizga qilishimiz kerakligini necha marta takrorlaganlar?

3 marta

Javoblardagi raqamlar alifbodagi qaysi harflarning tartib raqami ekanligini topib , ularni ketma ket joylashtiring. Qanday so`z hosil bo`ldi?

Tekshiring

17, 4, 1, 3

R e a D

Bu so`z inglizcha ..... degani, ya`ni “Kitobni.....! (O`qi)

Maktubni.....!

She`ni ifodali.....! O`qi fe`liga bog`lanib , unga tobelanib kelgan so`zlar gapning ikkinchi darajali bo`lagi bo`lgan to`ldiruvchining vositasiz turidir. Bular--she`ni,maktubni, kitobni.

### **Uyga vazifa.**

191- mashq . Osmon, bulut, shamol, yomg`ir so`zlarini vositasiz to`ldiruvchi vazifasida qo`llab gaplar tuzish.Belgisiz to`ldiruvchilar ishtirok qilgan she`riy to`rtliklar yodlash.

**Sana:**

**Sinf:**

**Fan:**

**Dars mavzusi:** G'.G'ulomning “Vaqt” she`ri tahlili

**Dars jihozi:** darslik,oq qog`oz,flomaster.

**Dars uslubi:** savol-javob, FSMU texnologiyasi.

**Dars maqsadi:**

**a) ta`limiy** - o`quvchilarni adib asarlari bilan tanishtirish;

**b) tarbiyaviy** - o`quvchilarni o`z vaqtidan unumli foydalana olish ruhida tarbiyalash;

**d) rivojlantiruvchi** - o`quvchilarni mushohada yuritishga,fikrlarini xulosalay olishga o`rgatish.

**Darsning borishi:**

## **I. Tashkiliy qism:**

**a) salomlashish;**

**b) davomatni aniqlash;**

**d) sinf tozaligini tekshirish;**

**e) o`quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.**

## **O'tgan mavzuni takrorlash.**

O'quvchilardan G'afur G'ulomning hayoti va ijodiyotiga doir ma'lumotlar savol-javob usulida so'rab olinadi.

Namuna:

1.Bo'lajak shoirning yoshlik yillari qanday sharoitda kechdi?

2.G'.G'ulomning qaysi asarida bolalik yillarining og'ir nafasi seziladi?

3.Adib qaysi gazeta va jurnallarda ishladi?

4.G'.G'ulomning birinchi she'riy to'plami qanday nomlangan?

5.Iste'dodli adibning qissalari nomini sanab bering...

6.Urush yillarida yozgan asarlari nomini ayting.

7.Mustaqillik yillarida adib xotirasini abadiylashtirish uchun nima ishlar qilindi?

## **3. Yangi mavzu bayoni**

G'afur G'ulomning "Vaqt" she'ri o'quvchilar bilan o'qib tahlil qilinadi...

...G'alaba amri-la mag'lub nemisning

Generali qo'l qoydi. Uch sekund faqat...

Shu mal'un imzoda odamlar o'qir

Million yil fashistning umriga la'nat...

Bu she'r fashizm ustidan qozonilgan g'alaba munosabati bilan yozilgan.Ikkinchi jahon urushi voqealari, ko'rguliklari G'afur G'ulom qalbida o'chmas iz qoldirdi. Urushda qozonilgan g'laba to'g'ridida har kim har xil yozishi tabiiy hol. Kimdir bu g'labani ko'tarinki ohang,ko'tarinki so'z bilan ifoda qiladi. Kimningdir ichiga sig'magan quvonchi g'alabani olqishlash shaklidagi qog'ozga to'kiladi.G'afur G'ulom esa ijodiy tafakkuriga faylasufona mulohazakorlik bilan yondashadi. Shoir "Vaqt" she'rida lahza (sekund)ning mohiyatiga nazar tashlaydi.

Darhaqiqat, yuzaki qaraganda lahza ko'z ochib yumguncha o'tadigan fursat.Go'yo e'tiborga,diqqatga arzimaydi.O'z umrini poyonsiz deb o'ylaydigan aksariyat odamlar uchun lahzaning sariq chaqalik qimmatini bo'lmasligi mumkin.Biroq bir lahza ne-ne ishlarning hal bo'lishida sabab bo'lishi mumkin:

Har lahza zamonlar umridek uzun,

Asrlar taqdiri lahzalarda hal

Umrden o'tajak har lahza uchun

Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal...

O'quvchilar bilan yuqoridagi tartibda "Vaqt" she'rining faylasufona g'oyasi ochib berishga harakat qilinadi.

## **4. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Har bir o'quvchining she'rdan chiqargan fikrini bilib olish, xulosalash uchun ularga FSMU texnikasi asosida topshiriq beriladi. O'quvchilarning har biri FSMU texnologiyasining 4 bosqichini yozilgan qog'oz varaqlari tarqatiladi.

F-fikr  
S-sabab ko'rsating.  
M-misol keltiring.  
U-umumlashtiring.

**Namuna:**

**F-** lahza ko'z ochib yumguncha o'tadigan fursat. Biriq...

**S-**biroq insoniyat hayoti- uning quvonch-u tashvishlari, hatto qismati ham mana shu lahzalarga bog'liq.

**M-**Bir onning bahosin o'lchamoq uchun

Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.

**U-**hayotind abadiy qonuniyatlarini anglagan, his qilgan odam uchun behuda lahzaning o'zi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

O'quvchilar shu tartibda G'.G'ulomning "Vaqt" she'ridan chiqargan mushohadalarini bayon qiladilar.

Yakka tartibdagi ish tugagach, o'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi va guruhlariga FSMU texnologiyasining 4-bosqichi yozilgan.format qog'ozlar tarqatiladi.

-kichik guruhlardagi har bir o'quvchi o'zi yozgan fikr va dalillarini katta formatda umumlashtirgan holda yozadi;

-kichik guruhlarda yozilgan fikrlar o'zaro himoya qilinadi;

-kichik guruhdagi bir o'quvchi guruh ishini taqdimot qiladi;

Bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga undaydi.

**Xulosa:**

O'quvchilarning FSMU texnologiyasidan chiqargan xulosalari umumlashtiriladi.

**5. O'quvchilarni baholash:**

Darsda savol-javoblarga, o'z fikrlarini bayon qilishga harakat qilgan faol o'quvchilar baholanadi.

**6. Uyga vazifa:**

G'.G'ulomning "Vaqt" she'rini yod olish.